

Ta'lim Jarayonida O'quvchilarning Bilim Olishga Bo'lgan Ehtiyojlarini Oshirishda Muammoli Ta'limning O'rni

Diloromxon Yusupova Sabirdjanovna ¹

Abstract: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida muammoli ta'limlarni o'rni, qo'llashdagi o'ziga xosliklar, maktabda o'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlashi uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirishi, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlaridan foydalangan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish va rivojlantirishga qaratilgandir. Nazariy olgan bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llash va mustaqil fikrlasga yo'naltirishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'quvchi, shaxs, ma'naviy kamolot, o'qish, individual, taraqqiyot, egallagan bilim, ko'nikma, malaka, daraja, muammo, maqsad, material.

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahonidagi taraqqiyot etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda, o'qitish jarayonida ham qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimizning ilm olishga va dunyoqarashini o'zgartirishga, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarishga doir usullardan ta'lim jarayonida qo'llash taqazo etilmoqda.

Bugun jamiyat ta'lim maskanlari oldiga: maxsus qobiliyatini rivojlantirish, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlaridan oqilona foydalanib, erkin fikrlash ko'nikmalarini qaror toptirish va mustaqil harakat qilishga motivatsiya berishga, maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Muammoli ta'limning afzalliklari ularda ko'plab ijobiy sifatlarni tarkib topishiga olib keladi, jumladan, maktabda o'quvchi o'z ma'naviy kamolotini ta'minlash uchun mustaqil ravishda kitob o'qish malakasini shakllantirish, bilim olish yo'lida bor imkoniyatlarini qo'llagan holda ijodkorlik ko'nikmalarini qaror toptirish talab qilinyapti. O'qitishga bunday yondashuv, o'z navbatida, o'quvchini ko'chirmachilik, dangasalik, o'z fikrini asoslay olmaslik, tayyor andozalar, belgilangan qoliplar asosida fikrlashdan xalos etmoqda. Muammoli ta'lim mustaqil, erkin, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga, yangi g'oyalarni yaratishga, buning ta'sirida yo'lida uchragan to'siqlarni mustaqil ravishda, unga ijodiy yondashgan holda bartaraf etash garovidir. Bu esa o'quv materialini o'zlashtirilganligini ko'rsatadi, bilimni mustahkamlaydi, bilimlarni qat'iy lashtiradi va takomillashtiradi. O'quvchida o'qishga ijobiy hissiy munosabat uyg'otadi, bilim olishga ichki ehtiyoj shakllantiradi. O'qituvchining rahbarlik roli muammoli ta'limda ham saqlanib qoladi. Aynan o'qituvchi o'quvchilarning umumiy va individual taraqqiyoti, egallagan bilim, ko'nikma, malakalari darajasi, qo'yilgan muammoning umumiy maqsadga qanchalik mosligidan kelib chiqib, zarur material tanlaydi, muammoni ko'rsatadi.

Muammoli ta'lim nazariyasi yana shularni rivojlantiradiki, o'quvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi, ta'limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Shuni ta'kidlash ahamiyatliki, muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi:

¹ Andijon davlat universiteti Umumiy pedagogika kafedrasida o'qituvchisi



- muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Barchamizga ma'lumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim ko'rsatkichi – yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar ta'lim ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy ma'nosida rivojlanuvchi ta'lim deb hisoblash mumkin.

Rivojlanuvchi ta'lim esa, o'quvchilarni umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta'limni hisoblash mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga tayangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish faoliyatini olib boradi.

O'qituvchi o'qitish jarayoniga muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash uchun quyidagi masalalarni hal qilishi lozim bo'ladi:

1. O'quv dasturi bo'yicha mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;
2. Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash zarur.

Ta'limning bu turida o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ishlaydi. Bu undan kasbiy mahoratni talab qiladi. Gap shundaki, u yoki bu o'quv topshiriqlari bir bola uchun qiyin, ikkinchisi uchun oson. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish uchun har bir o'quvchi dars jarayonida o'zining kuchi darajasidagi masalani hal qilish bilan shug'ullanishga erishish lozim.

Bunday jarayonda o'qituvchining pedagogik tajribasidan muammoli ta'lim o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatadigan, uni intellektual faol shaxs sifatida shakllantiradigan samarali metod tarzida o'rin olishi kerak. Muammoli ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning bilim olish faoliyatini mustaqil va ijodiy yo'nalishga chiqarish
2. O'quvchining yangi bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirishini ta'minlash.
3. Tarbiyalanuvchilarning bilim olishdagi mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish
4. Ta'limning ilmiylik darajasini oshirish.
5. O'quvchida ilmiy dunyoqarash shakllanishini ta'minlash.
6. Shakllanib kelayotgan shaxsda hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish, uning ko'nglida odam va olam sirlarini bilishga ichki ishtiyoqni uyg'otish.

Muammoli ta'lim — o'quvchi faoliyatida bilimlarni o'zlashtirish va muammoli vaziyatni tahlil qilish yo'li bilan hal qiluvchi faoliyat turlarida, muammoli vaziyatlar tashkil qilish va ulardan chiqishda o'z takliflari, asoslari, isbotlari, farazlarini ilgari surish bilan bog'liq bo'lgan alohida tizim. Bu aqliy faoliyat bilimlarni, yangi tushunchalarni o'qituvchining rahbarligida, ongli ravishda o'zlashtirishga, tafakkur mustaqilligini ta'minlash va faollashtirishga, shaxs shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchining vazifasi ma'lum muammoli vaziyatni tashkil etish ekan, buning uchun u, avvalo, o'quvchiga muammo nimadan iborat ekanini to'g'ri anglatishi, unda shu muammoni hal etishga xohish-qiziqish, ichki ehtiyoj uyg'otishi zarur hisoblanadi. Muammoli masalalarni yechish jarayoni, ayrim holatlarda, o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyatini taqozo etadi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga masalani hal etish uchun zarur tavsiyalar berish, ularni bilim olishga yo'naltirish, masalani mustaqil yechishiga, bunga ijodiy yondashishiga turtki berib turishdan iborat. Muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlashi bilan birga ijodkorligi rivojlanishiga ham ko'maklashadi. Ijodkorlik alohida bir narsa emas va u inson faoliyatining har qanday jabhasida



namoyon bo'lishi mumkin. Har qanday ruhan sog'lom odam ijodkorlikka qodir. Muammoli ta'limda o'quvchining asosiy vazifalaridan biri o'quvchida o'quv materialiga, uni o'zlashtirib olishga qiziqish uyg'otishdir. Buning uchun o'qituvchi, bir tomondan, o'quvchining e'tiborini o'quv materialini o'zlashtirishga ruhlantiradigan vaziyat yaratishi zarur. Ikkinchi tomondan, o'quvchi diqqatini uning shaxsi uchun xarakterli bo'lgan motivatsiyaga qaratishi kerak. Muammoli ta'lim vazifalariga o'quvchilarning muammoni hal etishga qaratilgan tadqiqot ishlari, turli ma'naviy qadriyatlarni tuyishlari, intellektual bilish va amaliy faoliyati ham kiradi. O'qitishning bu jihati o'quvchilarning imkoniyatlaridan maksimal foydalangan holda borliqni butun turfaligi bilan bilish va qayta kashf etishda asosiy yo'nalish hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchining shaxsiy, amaliy, jismoniy, aqliy qobiliyatlariga, sifatlariga yoki o'rtoqlari, asar qahramonlari yoxud taniqli kishilarga taqlid qilishadi, badiiy asarlarning mazmuni bevosita inson hayotining mohiyati bo'lmish o'zaro ijtimoiy munosabatlar, inson faoliyatining yutuq, mag'lubiyatlari bilan bog'liq.

O'quvcilar hayotdan o'z o'rnini izlar ekan, darslaridan o'ziga kerakli ma'naviy saboqni olishlari, hayotdagi muammoli vaziyatlardan aql bilan echim topishlari, doimo o'z kuchiga ishonishlari va hayotda har bir maqsadga mustaqil intilishlari asosida erishishlariga ishonch tuyg'ularini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Okon V. Osnovm problemnogo obucheniya. - Moskva: «Prosveshenie», 1968.
2. Ilnitskaya I. A. Problemme situatsii i pugi ix sozdaniya na uroke. — Moskva
3. Maxmutov M. I. Teoriya i praktika problemnogo obucheniya. - Kazan: TKI, 1972.
4. Husanboeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. T.: 2009.
5. Qodirov V. Adabiyot o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar matni. Andijon.: 2010.

